Banklarning to‘lov amaliyotida raqamli texnologiyalar va platformalardan foydalanishning nazariy asoslari

JUMAEV SHOHJAHON SHOKIROVICH
Tadqiqotchi
sh.sh.jumayev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada banklarning to‘lov amaliyotida raqamli texnologiyalar va platformalardan foydalanishning nazariy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda raqamli bank xizmatlarining bank tizimi shaffofligini ta’minlash, inson omilini kamaytirish, korrupsiya va norasmiy munosabatlarning oldini olishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalarning tashqi savdo faoliyatini rivojlantirishdagi o‘rni, jumladan, tashqi savdo operatsiyalarini tezlashtirish, bojxona va hujjatlar aylanishini soddalashtirish hamda yetkazib berish zanjirlarini samarali nazorat qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Elektron savdo, blokcheyn, smart-shartnomalar, bulutli texnologiyalar va onlayn platformalarning xalqaro to‘lov tizimidagi o‘rni alohida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, elektron savdoning B2B va B2C segmentlari rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari ham tahlil etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamlashtirish jarayonlari xalqaro savdo va bank xizmatlarida transaksion xarajatlarni kamaytirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli bank xizmatlari, raqamli texnologiyalar, bank to‘lov tizimi, elektron savdo, blokcheyn, smart-shartnoma, onlayn platformalar, tashqi savdo, B2B, B2C, xalqaro savdo, raqamlashtirish, transaksion xarajatlar, elektron akkreditiv, bulutli texnologiyalar.

Digital technologies and platforms in banking payment practices: theoretical foundations

Annotation (Abstract):
This article examines the theoretical foundations of the use of digital technologies and platforms in banking payment practices. The study analyzes the importance of digital banking services in ensuring transparency in the banking system, reducing the influence of the human factor, and preventing corruption and informal relations. The article highlights the role of digital technologies in the development of international trade, including the acceleration of foreign trade operations, optimization of customs and document circulation processes, and strengthening control over supply chains. Particular attention is paid to electronic commerce, blockchain technologies, smart contracts, cloud technologies, and online platforms in international payment systems. The paper also discusses the growing importance of B2B and B2C electronic trade segments and evaluates the impact of digitalization on reducing transaction and information costs in global trade. Based on international organizations’ reports and scientific literature, conclusions are drawn regarding the prospects of digital transformation in banking and foreign trade activities.

Keywords:
digital banking services, digital technologies, banking payment systems, electronic commerce, blockchain, smart contracts, online platforms, foreign trade, B2B, B2C, international trade, digitalization, transaction costs, electronic letter of credit, cloud technologies.

Kirish. Innovatsion raqamli bank xizmatlari-raqamli bank xizmatlarining o‘ziga xos xususiyati sifatida tizimning shaffofligi, inson omilining cheklanganligi, korrupsiya hamda tanish-bilishchilik va shu singari bir qator illatlarga tubdan barxam beradi.

Bank sohasini raqamlashtirishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan berilayotgan takliflar va foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma’lumotlar barchasi axborot texnologiyalar xotirasida saqlanib qoladi hamda kerakli paytda ma’lumotlarni tez taqdim etadi.

Ta’kidlash joizki, tovarlar bilan savdo qilishdan farqli o‘laroq, xizmatlar bilan savdo qilish ishlab chiqaruvchi va iste’molchini to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ya’ni offlayn muloqotini ko‘zda tutadi. Buning ustiga, ayrim turdagi xizmatlar provayder va mijozning jismoniy yaqin bo‘lishini talab etadi. Bunday jismoniy yaqinlik xizmatlarni transchegaraviy yetkazib berishlarni imkonsiz qilib qo‘yadi. Raqamli texnologiyalar esa, mazkur talabning muhimligini sezilarli darajada pasaytiradi. Masofaviy nazorat qilinadigan robotlar sohasidagi innovatsiyalar xizmatlar bilan savdo qilishning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Biroq, hozircha bunday texnologiyalarni bahosini yuqori ekanligi ulardan foydalanish ko‘lamini kengaytirishga to‘sqinlik qilib turibdi.

Elektron akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi barcha tomonlarni xavfsiz onlayn-platformadan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi tovar hujjatlarini elektron taqdim etish va ularni tekshirish imkonini beradi. Hozirgi davrda dunyo miqyosida bir nechta kompaniya (masalan, GlobalTrade Corporation, essDOCS va The Bolero5 Ecosystem) shunday xzmatlarni ko‘rsatadi. Xorijiy banklardan The Royal Bank of Scotland, HSBC, China CITIC Bank, Agricultural Bank of China kabi banklar o‘zlarining mijozlariga elektron akkreditiv xizmatini taklif qilayapti.

Asosiy qism. S. Krasnых (Krasnых, 2020) xulosa qiladiki, tashqi savdoni raqamlashtirish yuqori texnologiyali tovarlar va xizmatlar bozorini rivojlantirish imkonini beradi, bu esa, mamlakat kompaniyalarining jahon bozorlaridagi muammolarini hal qilishga ko‘maklashadi. Smart-shartnomalar tashqi savdoda tovarlarni tashish, saqlash va yetkazib berish zanjirida joylashish sharoitlarini amalga oshirish ustidan avtomatik rejimda kuzatib borish imkonini beradi. Har bir harakat bo‘yicha matematik algoritm o‘rnatilgan.

T.Tolmachyovaning (Tolmachyova, 2020) xulosasiga ko‘ra, raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi, tashqi savdo faoliyatini rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi – tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish vaqti qisqaradi; tovarlarni rasmiylashtirish jarayoni ixchamlashadi; yetkazib berish zanjirini to‘liq nazorat qilish imkoniyati yuzaga keladi; yetkazib berilayotgan tovarning holatini kuzatish imkoni tug‘iladi.

Xalqaro savdo tashkiloti ekspertlarining hisob-kitoblariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llanilishi xalqaro savdoning o‘rtacha yillik o‘sish sur’atini 2016-2030 yillarda 1,8-2,0 foizli punktga oshirishi mumkin.

I.Streles va S.Chebanovning (Streles, Chebanov, 2020) xulosasiga ko‘ra, xalqaro savdoda elektron savdo texnologiyalarini, jumladan, V2V texnologiyasini qo‘llash kompaniyalar o‘rtasidagi import operatsiyalari raqamli texnologiyalar asosida kengaytirish imkonini beradi.

Haqiqatdan ham, V2V segmentini elektron savdolarning umumiy hajmidagi salmog‘ini yuqori bo‘lishi raqamli texnologiyalarning tovarlar importi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni kamaytirishdagi rolining oshib borayotganligini yaqqol ko‘rsatadi.

T.Tolmachyovaning (Tolmacheva, 2020) xulosasiga ko‘ra, raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi, tashqi savdo faoliyatini rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi – tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish vaqti qisqaradi; tovarlarni rasmiylashtirish jarayoni ixchamlashadi; yetkazib berish zanjirini to‘liq nazorat qilish imkoniyati yuzaga keladi; yetkazib berilayotgan tovarning holatini kuzatish imkoni tug‘iladi.

Xalqaro savdo tashkiloti (Trade and Development 2022) ekspertlarining hisob-kitoblariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llanilishi xalqaro savdoning o‘rtacha yillik o‘sish sur’atini 2016-2030 yillarda 1,8-2,0 foizli punktga oshirishi mumkin.

BMT ekspertlarining hisob-kitoblariga ko‘ra (UNCTAD, 2018), elektron savdolarning xalqaro eksport va import operatsiyalaridagi ulushi yuqori o‘sish sur’atiga ega bo‘lib, 15 foizga yaqin bo‘lgan darajani tashkil etadi.

Shunisi ahamiyatliki, elektron savdo bozorining eng faol segmenti bo‘lib, V2V segmenti hisoblanadi. Bu esa, mazkur segmentda kompaniyalarning o‘zaro eksport-import operatsiyalarini raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirish ko‘lamining kengligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, dunyo bo‘yicha elektron savdoda bozorning V2S segmenti ham (biznes iste’molchi, ya’ni so‘nggi talab tovarlarini sotish) muhim ahamiyat kasb etadi.

Garchi elektron savdo bozorining V2S segmentidagi operatsiyalarning o‘sish sur’ati yuqori bo‘lsa-da, ushbu operatsiyalarning hajmi V2V segmentidagi operatsiyalarning hajmidan sezilarli darajada kamdir.

I.Axmedovning (Axmedov, 2023) xulosasiga ko‘ra, “Internet, bulutli texnologiyalar va global onlayn platformalarning jadal rivojlanishiga asoslangan tijorat faoliyati uchun milliy chegaralarni bilmaydigan yangi universal muhitning paydo bo‘lishi xalqaro savdo tushunchasini sifat jihatdan o‘zgartirmoqda. Raqamlashtirish milliy iqtisodiyotga tobora chuqur kirib bormoqda va mamlakatlar o‘rtasidagi savdo kompaniyalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va uy xo‘jaliklari ishtirokidagi savdoga aylanmoqda. Ma’lum bir jug‘rofiy joylashuv bilan bog‘lanmagan globallashgan virtual sohada xalqaro savdoning o‘ziga xos tarkibiy qismini ajratib olish tobora qiyinlashmoqda”.

E’tirof etish joizki, bojxona jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan savdo xarajatlari ham savdoga, ayniqsa, qayta ishlash sanoati mahsulotlari savdosiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda blokcheyn va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish vaqt va mablag‘larni tejash, bojxonada hujjatlarni aylanish vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Bunday afzalliklardan foydalanish, ayniqsa, qiymatning global zanjiri doirasida muddatli tovarlar bilan savdo qilishda hamda tez buziladigan tovarlar bilan savdo qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Xalqaro savdo tashkilotining (World Trade Report) prognoziga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni keng ko‘lamda qo‘llanilishi natijasida xizmatlarning xalqaro savdodagi ulushi 2030 yilda 25 foizga yetadi. Bu esa, pirovard natijada, xizmatlar bilan savdo qilish xarajatlarini tovarlar bilan savdo qilish xarajatlariga nisbatan sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Xalqaro savdo tashkiloti 2022ekspertlarining xulosasiga ko‘ra, yangi raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etilishi ko‘proq shartnomaviy-intensiv tovarlar savdosining hajmini oshishiga olib keladi. Bu yerda gap murakkab nostandart mashinalar va uskunalar (transport uskunalari, elektronika, ilmiy laboratoriyalar uchun uskunalar) haqida ketayapti.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, tayyor mahsulotlarning xalqaro savdosida axborot va transaksion chiqimlar katta bo‘lib, jami savdo chiqimlarining 7 fozigacha yetadi (PWC, 2022).

Xulosa. Xulosa qilib aytganda:

- raqamli bank xizmatlari bank tizimining shaffofligini ta’minlash, inson omilining ta’sirini cheklash, korrupsiya hamda tanish-bilishchilik va shu singari bir qator illatlarga tubdan barxam beradi;

- tashqi savdoni raqamlashtirish yuqori texnologiyali tovarlar va xizmatlar bozorini rivojlantirish imkonini beradi, bu esa, mamlakat kompaniyalarining jahon bozorlaridagi muammolarini hal qilishga ko‘maklashadi;

- garchi elektron savdo bozorining V2S segmentidagi operatsiyalarning o‘sish sur’ati yuqori bo‘lsa-da, ushbu operatsiyalarning hajmi V2V segmentidagi operatsiyalarning hajmidan sezilarli darajada kamdir;

- yangi raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etilishi ko‘proq shartnomaviy-intensiv tovarlar savdosining hajmini oshishiga olib keladi. Bu yerda gap murakkab nostandart mashinalar va uskunalar (transport uskunalari, elektronika, ilmiy laboratoriyalar uchun uskunalar) haqida ketayapti.

-tayyor mahsulotlarning xalqaro savdosida axborot va transaksion chiqimlarning ulushi katta.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Красных С.С. Влияние цифровизации на внешнеторговую деятельность//Вестник Челябинского государственного университета, 2020. – №11. – С. 212-219.

2. Толмачева Т.А. Цифровизация как фактор повышения эффективности внешнеторговой деятельности//Вестник Алтайской академии экономики и права, 2020. - №12. – С. 405-411.

3. Стрелец И., Чебанов И. Цифровизация мировой торговли: масштабы, формы, последствия//Мировая экономика и международные отношения. – Москва, 2020. - №1. – С. 15-25.

4. Trade and Development 2022. Power, Platforms and Free Trade Delusion. New York, Geneva, UNCTAD, 2023.

5. Development. UNCTAD, 2018. - 58 p

6. Толмачева Т.А. Цифровизация как фактор повышения эффективности внешнеторговой деятельности//Вестник Алтайской академии экономики и права, 2020. - №12. – С. 405-411.

7. World Trade Report 2022. The Future of World Trade: How Digital Technologies are transforming global Com-merce, WTO, 2022//www.vto.org